

SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISHDA MAJBURIY VA PROFILAKTIK MEXANIZMLAR SAMARADORLIGI

Mirpo`latov Jahongir Muzapparovich
Toshkent shaxar soliq boshqarmasi boshlig`i

Annotatsiya. Soliq qarzdorligini undirish tizimida majburiy va profilaktik mexanizmlarning o`rni hamda samaradorligi bugungi kunda soliq ma`murchiligini takomillashtirishning muhim yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda soliq qarzdorligini qisqartirishda qo`llaniladigan majburiy undirish choralarining amaliy natijalari, shuningdek qarzdorlik yuzaga kelishining oldini olishga xizmat qiluvchi profilaktik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, ogohlantirish, eslatma, bo`lib-bo`lib to`lash, kechiktirish, tushuntirish ishlari va riskga asoslangan monitoring kabi vositalarning soliq intizomiga ta`siri baholangan. Tadqiqot natijalari soliq qarzdorligini boshqarishda faqat majburiy undirish choralari bilan cheklanib qolmasdan, profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish ham yuqori samaradorlikka olib kelishini ko`rsatadi.

Kalit so`zlar: soliq qarzdorligi, majburiy undirish, profilaktik mexanizmlar, soliq ma`murchiligi, soliq intizomi, undirish samaradorligi, riskga asoslangan yondashuv, ogohlantirish xatlari, bo`lib-bo`lib to`lash, kechiktirish

Abstract. The role and effectiveness of compulsory and preventive mechanisms in the collection of tax arrears have become one of the important directions of improving modern tax administration. This study analyzes the practical results of compulsory enforcement measures used to reduce tax arrears, as well as the significance of preventive approaches aimed at avoiding the emergence of debt. In particular, the impact of such instruments as warnings, reminders, installment payments, deferrals, explanatory measures, and risk-based monitoring on tax discipline is assessed. The findings show that effective tax arrears management requires not only compulsory enforcement measures, but also stronger preventive mechanisms.

Keywords: tax arrears, compulsory collection, preventive mechanisms, tax administration, tax discipline, collection efficiency, risk-based approach, warning letters, installment payment, deferral

Kirish

Soliq qarzdorligi har qanday davlat soliq tizimining fiskal barqarorligiga, byudjet tushumlarining uzluksizligiga hamda soliq intizomi darajasiga bevosita ta`sir ko`rsatuvi omillardan biri hisoblanadi. Soliq majburiyatlarining o`z vaqtida bajarilmasligi nafaqat davlat moliyaviy resurslarining kechikishiga, balki xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida to`lov intizomining pasayishiga, sog`lom raqobat

muhitining buzilishiga va soliq ma'murchiligi xarajatlarining ortishiga ham olib keladi. Shu sababli soliq qarzdorligini undirish masalasi zamonaviy soliq ma'murchiligining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda[1]. OECD materiallarida ham soliq qarzlarni samarali boshqarish yuqori darajadagi ixtiyoriy to'lov intizomini saqlash va soliq tizimiga ishonchni mustahkamlashning muhim sharti sifatida baholanadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi, avvalo, soliq qarzdorligini undirishda faqat majburiy choralar bilan cheklanib qolish yetarli emasligi bilan izohlanadi. An'anaviy yondashuvda qarzdorlik vujudga kelganidan keyin talabnoma yuborish, bank hisobvaraqlaridagi mablag'lar hisobidan undiruvni amalga oshirish, inkasso topshiriqnomalaridan foydalanish hamda zarurat bo'lganda mol-mulkka undiruv qaratish kabi majburiy mexanizmlar qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida ham soliq qarzini undirishning ana shunday huquqiy instrumentlari, shuningdek soliq to'lovchiga kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkonini beruvchi tartiblar belgilangan[2]. Bu esa soliq qarzdorligini boshqarishda undirish va oldini olish mexanizmlari bir-birini to'ldiruvchi ikki yo'nalish ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqotning dolzarbligini kuchaytiruvchi yana bir jihat shundaki, xalqaro amaliyotda soliq qarzini kamaytirishning eng samarali yo'li sifatida uning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ya'ni profilaktik boshqaruv yondashuvi tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. OECDning zamonaviy yondashuvlarida qarzdorlikni erta aniqlash, soliq to'lovchilarni segmentatsiya qilish, riskga asoslangan monitoring yuritish va qarz yuzaga kelishidan oldin ogohlantiruvchi mexanizmlarni ishga tushirish samarali usul sifatida qayd etilgan[3]. Shuningdek, Jahon banki materiallarida eslatma xatlari, ogohlantirishlar, xulq-atvor omillariga asoslangan kommunikatsiya choralarning soliq intizomini oshirishda nisbatan arzon va samarali vosita bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan. Demak, profilaktik mexanizmlar fiskal natijadorlikni ta'minlash bilan birga ma'muriy xarajatlarni ham kamaytirish salohiyatiga ega.

Bugungi sharoitda soliq qarzdorligini undirish tizimini takomillashtirish zarurati iqtisodiy jihatdan ham, institutsional jihatdan ham dolzarbdir. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, undirilmagan soliq qarzi byudjet daromadlarining barqaror shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Institutsional nuqtayi nazardan esa, faqat jazoga asoslangan ma'murchilik modeli uzoq muddatda yetarli samara bermasligi mumkin. Chunki soliq to'lovchining xulq-atvori, axborotga ega bo'lish darajasi, to'lov qobiliyati va ma'muriy tizim bilan o'zaro munosabati ham qarzdorlik shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun soliq qarzdorligini boshqarishda majburiy va profilaktik mexanizmlarning o'zaro nisbatini, ularning amaliy natijadorligini hamda qo'llash chegaralarini ilmiy asosda baholash zarurati yuzaga keladi[4].

Shu jihatdan ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy muammosi soliq qarzdorligini undirishda qaysi yondashuv ko'proq natija berishini emas, balki majburiy va

profilaktik mexanizmlarning qanday uyg'unligi eng yuqori samaradorlikni ta'minlashini aniqlashdan iborat. Chunki soliq tizimida majburiy undirish choralari muqarrar zarurat bo'lsa-da, qarzdorlikni erta ogohlantirish, to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash, tushuntirish ishlari va riskga asoslangan kuzatuv kabi profilaktik instrumentlar ko'p hollarda qarzdorlik hajmining ortib ketishini cheklashi mumkin.

Asosiy qism

Soliq qarzdorligini undirish samaradorligini baholash, eng avvalo, ushbu hodisaning fiskal tizim va soliq ma'murchiligi faoliyatidagi real o'rmini aniqlashni talab etadi. Soliq qarzdorligi budjet daromadlarining o'z vaqtida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, soliq intizomi darajasining pasayishi, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida teng raqobat sharoitining buzilishi hamda soliq organlarining ma'muriy xarajatlari ortishiga ham sabab bo'ladi. Shu bois soliq qarzdorligini undirish masalasi tor ma'nodagi ijro jarayoni emas, balki soliq ma'murchiligi samaradorligini belgilovchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi amaliyotida soliq qarzdorligining muhim xususiyatlaridan biri uning ayrim tarmoqlar va yirik qarzdor subyektlar kesimida yuqori darajada konsentratsiyalashganligidir. Xususan, 2025-yil 1-yanvar holatiga soliq qarzi 100 mln so'mdan yuqori bo'lgan 901 ta ishlab chiqarish korxonasi jami qarzdorligi 1 361,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 438,1 mlrd so'mi yoki 32,2 foizi eng yirik 10 ta korxonaga hissasiga to'g'ri kelgan. Mazkur ko'rsatkich soliq qarzdorligining sezilarli qismi nisbatan cheklangan doiradagi yirik subyektlarda jamlanganini ifodalaydi. Binobarin, majburiy undirish mexanizmlarining natijadorligi ko'p jihatdan aynan yuqori qarzdorlikka ega subyektlar bilan ishlash sifati va tezkorligiga bog'liqdir[5].

Shunga yaqin tendensiya qurilish sohasida yanada yuqori darajada kuzatiladi. 2025-yil 1-yanvar holatiga soliq qarzi 100 mln so'mdan yuqori bo'lgan 915 ta qurilish korxonasi jami qarzdorligi 812,2 mlrd so'mni tashkil etgan, uning 350,6 mlrd so'mi yoki 43,2 foizi eng yirik 10 ta qarzdor korxonaga hissasiga to'g'ri kelgan. Ushbu holat soliq qarzdorligi tarkibida Pareto tipidagi konsentratsiya mavjudligini ko'rsatadi[6]. Mazkur sharoitda barcha qarzdorlarga nisbatan bir xil tartibdagi ta'sir choralari qo'llash iqtisodiy va ma'muriy jihatdan optimal yondashuv hisoblanmaydi. Aksincha, qarzdorlarni segmentlash va yirik qarzdorlarga nisbatan qat'iyroq majburiy choralarni, kichik va o'rta qarzdorlar bo'yicha esa profilaktik vositalarni qo'llash samaraliroq natija berishi mumkin.

Soliq qarzdorligi faqat yuridik shaxslar doirasidagi muammo emasligini jismoniy shaxslar bo'yicha ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. 2025-yil 1-yanvar holatiga 129 099 ta tashkilotning 441,2 ming nafardan ortiq xodimida 495 771 ta soliq obyekt bo'yicha jami 337,9 mlrd so'm miqdorida yer va mol-mulk solig'i bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lgan. Ushbu summaning 265,2 mlrd so'mi tijorat tashkilotlari xodimlari hissasiga

to'g'ri kelgan. Tarmoqlar kesimida qarzdorlikning eng yuqori miqdori qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 65,5 mlrd so'mni, sanoatda 58 mlrd so'mni, savdoda 42 mlrd so'mni hamda qurilishda 39,6 mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlar soliq qarzdorligi tarkibida ommaviy, nisbatan mayda summali, biroq son jihatdan keng tarqalgan qarzdorlik qatlamining ham muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Bunday segmentda profilaktik yondashuvlarning ahamiyati ortadi, chunki har bir holat bo'yicha qattiq majburiy undirish choralari qo'llash ma'muriy xarajatlarning oshishiga olib kelishi mumkin[7].

Soliq qarzdorligini undirishning majburiy mexanizmlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida huquqiy jihatdan aniq belgilangan. Mazkur normalarga ko'ra, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlardan soliq qarzini undirish, avvalo, ularning bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi, mablag'lar yetarli bo'lmagan taqdirda esa undiruv boshqa mol-mulkka qaratiladi. Shuningdek, inkasso topshiriqnomalari banklar tomonidan qat'iy belgilangan muddatlarda bajarilishi lozim. Ushbu tartib soliq qarzini majburiy undirish tizimining tashkiliy va protsessual jihatdan tezkor mexanizmga asoslanganini ko'rsatadi. Demak, yirik va yuqori likvid aktivlarga ega qarzdorlar bo'yicha majburiy undirish choralari nisbatan yuqori natijadorlikka ega bo'lishi tabiiydir.

Biroq majburiy undirishning ustuvorligi profilaktik mexanizmlarning ahamiyatini inkor etmaydi. Aksincha, zamonaviy soliq ma'murchiligi konsepsiyasida qarzdorlikni faqat yuzaga kelganidan keyin emas, balki uning vujudga kelish ehtimolini pasaytirish orqali boshqarish yondashuvi tobora kuchayib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliqni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatining mavjudligi aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Ushbu mexanizm vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan, biroq iqtisodiy faoliyatni davom ettirish salohiyatiga ega subyektlarga nisbatan qo'llanilganda, bir tomondan budjet manfaatlarini saqlashga, ikkinchi tomondan esa subyektning to'lov qobiliyatini tiklashga xizmat qiladi. Natijada qarzdorlik chuqurlashib borishining oldi olinadi va kelgusida qattiq undirish choralariga ehtiyoj kamayadi.

Xalqaro amaliyot mazkur yondashuvning nazariy va amaliy asoslanganligini tasdiqlaydi. OECDning Tax Administration 2024 hisobotiga ko'ra, 58 ta davlat ma'muriyatlari bo'yicha 2022-moliya yili oxirida umumiy muddatidan o'tgan soliq qarzdorligi qariyb 2,7 trln yevroga yetgan bo'lib, uning taxminan 810 mlrd yevrosi undirib olinishi mumkin bo'lgan qarz sifatida qayd etilgan. Ushbu ma'lumot soliq qarzdorligi hatto yuqori darajada rivojlangan soliq tizimlarida ham tizimli muammo ekanini ko'rsatadi[8]. Shu bilan birga, OECD hujjatlarida qarzdorlarni risk darajasi bo'yicha segmentlash, erta ogohlantirish, ma'lumotlar tahliliga asoslangan monitoring va qarz bilan ishlash strategiyalarini differensiallashtirish samarali boshqaruvning asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rsatilgan. Demak, profilaktik boshqaruv soliq

qarzdorligini kamaytirishda qo'shimcha vosita emas, balki soliq ma'murchiligi samaradorligining tarkibiy elementi sifatida qaralishi lozim.

Profilaktik mexanizmlarning natijadorligi xulq-atvor iqtisodiyoti doirasidagi tadqiqotlar bilan ham tasdiqlanadi. Jahon banki materiallarida soliq to'lovchilarga yuboriladigan eslatma va ogohlantirish xatlarining mazmuni, shakli va kommunikativ ta'siri ularning to'lov intizomiga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Xususan, Buyuk Britaniya tajribasida kechikkan to'lovchilar uchun mo'ljallangan xabarlardagi matnni o'zgartirish hisobiga qo'shimcha 4,9 mln funt sterling miqdorida tushum ta'minlangani profilaktik kommunikatsiya vositalarining fiskal samarasini ko'rsatadi[9]. Mazkur holat shuni anglatadiki, soliq qarzdorligini undirish har doim ham faqat qattiq ma'muriy bosimga tayanmasligi kerak; ayrim segmentlarda soliq to'lovchining xatti-harakatiga ta'sir qiluvchi yumshoq vositalar kamroq xarajat bilan ko'proq natija berishi mumkin.

O'zbekiston amaliyotida ham soliq xavfini boshqarish institutining shakllanib borayotgani profilaktik mexanizmlar ahamiyatining ortib borayotganidan dalolat beradi. Soliq xavfini boshqarish tartiblariga muvofiq, soliq to'lovchining xavf darajasi ma'lum davriylikda qayta baholanadi, qarzdorlikning yuzaga kelishi esa xavf toifasining qayta ko'rib chiqilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, shaxsiy kabinet orqali izoh va tushuntirish taqdim etish imkoniyatining mavjudligi soliq ma'murchiligida raqamli kommunikatsiya va preventiv monitoringning kengayib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur institutlar profilaktik mexanizmlarning ma'muriy amaliyotga integratsiyalashayotganini, ya'ni qarzdorlik bilan ishlash tizimi tobora ko'proq oldini olish tamoyiliga tayana boshlaganini bildiradi.

Shu bilan birga, profilaktik mexanizmlarning ahamiyatini ortiqcha absolutlashtirish ham metodologik jihatdan to'g'ri emas. Chunki yirik summali, uzoq muddatli va atayin to'lanmayotgan qarzdorlik holatlarida majburiy undirish choralari fiskal manfaatlarni himoya qilishning asosiy vositasi bo'lib qoladi. Ayniqsa, qarzdorlik yuqori darajada konsentratsiyalashgan tarmoqlarda bank hisobvaraqlaridan undiruv, inkasso topshiriqnomasi, mol-mulkka undiruv qaratish kabi choralar budjetga qisqa muddatda real tushum ta'minlash imkonini beradi. Shu sababli majburiy va profilaktik mexanizmlar bir-biriga muqobil emas, balki funksional jihatdan o'zaro to'ldiruvchi instrumentlar sifatida baholanishi kerak.

Umuman olganda, tahlil natijalari soliq qarzdorligini undirish samaradorligi biryoqlama yondashuv bilan emas, balki differensial va segmentlashtirilgan boshqaruv modeli orqali ta'minlanishini ko'rsatadi. Ommaviy va nisbatan kichik summali qarzdorliklarda profilaktik vositalar, jumladan eslatmalar, tushuntirish ishlari, bo'lib-bo'lib to'lash va risk-monitoring yuqoriroq samara berishi mumkin. Yirik, yuqori konsentratsiyalashgan va tizimli qarzdorlikda esa majburiy undirish choralari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demak, soliq qarzdorligini boshqarishning eng maqbul

modeli profilaktik mexanizmlar orqali qarzdorlikning oldini olish va zarur hollarda majburiy undirish orqali fiskal intizomni ta'minlashning institutsional uyg'unligiga asoslanadi.

Xulosa

Soliq qarzdorligini undirish tizimi soliq ma'murchiligining fiskal natijadorligini belgilovchi asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Uning samaradorligi faqat qarzdorlikni majburiy tartibda budjetga qaytarish darajasi bilan emas, balki qarzdorlikning yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish, to'lov intizomini mustahkamlash hamda soliq to'lovchilarning majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga undash imkoniyatlari bilan ham tavsiflanadi[10]. Shu sababli soliq qarzdorligi bilan ishlash masalasi tor ma'nodagi undiruv jarayonidan ko'ra kengroq mazmunga ega bo'lib, u soliq tizimining boshqaruv sifati va institutsional yetukligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichdir.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston amaliyotida soliq qarzdorligining ayrim tarmoqlar va yirik qarzdor subyektlar kesimida yuqori darajada konsentratsiyalashganligini ko'rsatdi. Mazkur holat yirik qarzdorlar bo'yicha majburiy undirish mexanizmlarining fiskal ahamiyati yuqori ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar va ommaviy mayda qarzdorlik segmentida profilaktik vositalarning qo'llanilishi nisbatan yuqori samara berishi mumkinligi aniqlandi. Bu esa barcha qarzdorlarga nisbatan bir xil ta'sir choralari qo'llash yondashuvi iqtisodiy va ma'muriy jihatdan yetarlicha samarali emasligini anglatadi.

Majburiy undirish mexanizmlarining huquqiy bazasi va tashkiliy tartib-taomillari amaldagi soliq qonunchiligida ancha aniq shakllantirilgan. Bank hisobvaraqlaridagi mablag'lar hisobidan undiruv, inkasso topshiriqnomalari hamda zarur hollarda mulkka undiruv qaratish kabi vositalar, ayniqsa, yirik va uzoq muddatli qarzdorlikni qisqa muddatda budjetga qaytarishda muhim rol o'ynaydi. Biroq ushbu vositalarning samaradorligi qarzdorning turi, qarzdorlik hajmi, uning davomiyligi hamda soliq to'lovchining moliyaviy holatiga qarab farqlanadi. Shu bois majburiy undirish choralari universal mexanizm sifatida emas, balki ma'lum segmentlarda ustuvor qo'llaniladigan instrument sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Profilaktik mexanizmlar esa soliq qarzdorligini boshqarish tizimida mustaqil va zarur yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Ogohlantirish xatlari, eslatmalar, tushuntirish ishlari, riskga asoslangan monitoring, kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash institutlari qarzdorlikning chuqurlashib ketishini oldini olishga, soliq to'lovchining to'lov qobiliyatini saqlab qolishga hamda ixtiyoriy to'lov intizomini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba ushbu mexanizmlarning nisbatan kam xarajat talab qilishi bilan birga sezilarli fiskal samara ham berishini ko'rsatadi. Demak, profilaktik yondashuvlar soliq qarzdorligini kamaytirishda yordamchi emas, balki tizimning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi.

O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, soliq qarzdorligini undirishda faqat majburiy choralar bilan cheklanilgan yondashuv uzoq muddatli nuqtayi nazardan yetarli emas. Profilaktik vositalar bilan to'ldirilgan boshqaruv modeli esa qarzdorlikning yangi shakllanish holatlarini cheklash, ma'muriy xarajatlarni qisqartirish va budjet tushumlarining barqarorligini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, ommaviy va nisbatan kichik summali qarzdorlik segmentida oldini olishga qaratilgan choralar yuqoriroq natijadorlik kasb etadi, yirik va tizimli qarzdorlikda esa majburiy undirish vositalari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

Shunday qilib, soliq qarzdorligini undirishning maqbul modeli majburiy va profilaktik mexanizmlarning o'zaro uyg'unlashgan tizimiga asoslanishi lozim. Bunday tizimda qarzdorlarni segmentatsiya qilish, ularning xatti-harakati va moliyaviy holatidan kelib chiqib differensial yondashuvni qo'llash, yirik qarzdorlar bo'yicha qat'iy undirish choralarini kuchaytirish, ommaviy qarzdorlik segmentida esa oldini olish va moslashuvchan to'lov instrumentlarini kengaytirish zarur. Aynan shu yondashuv soliq qarzdorligini qisqartirish, budjet barqarorligini mustahkamlash va soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishning institutsional asosini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr, LexUZ.
2. Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida nizom. 2021-yil 7-yanvar, LexUZ.
3. OECD. Tax Administration 2024. Paris: OECD Publishing, 2024.
4. OECD. Successful Tax Debt Management: Measuring Maturity and Supporting Change. Paris: OECD Publishing, 2019.
5. OECD. Tax Debt Management Maturity Model. 2025 edition. Paris: OECD, 2025.
6. World Bank. Behavioral Insights for Tax Compliance. Washington, DC: World Bank, 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. Ishlab chiqarish korxonalarining soliq qarzdorligi. 2025-yil 16-yanvar, gov.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. Qurilish korxonalarining soliq qarzdorligi. 2025-yil 16-yanvar, gov.uz.
9. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. Tashkilotlar xodimlarida mol-mulk va yer solig'i bo'yicha to'lanmagan soliq qarzdorligi. 2025-yil 17-yanvar, gov.uz.
10. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. Call-markaz javob beradi. 2024-yil 10-dekabr, gov.uz.